



## REFORM OF THE PUBLIC ADMINISTRATION SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Qandaxorov Iftixor<sup>1</sup>

<sup>1</sup>2nd year master of the department "History of Uzbekistan" of the Faculty of History of SamSU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4717461>

### ARTICLE INFO

Received: 17<sup>th</sup> April 2021  
Accepted: 21<sup>nd</sup> April 2021  
Online: 23<sup>rd</sup> April 2021

### KEY WORDS

public administration,  
the president, Oliy  
Majlis, Senate,  
democracy.

### ABSTRACT

*Through this article, we have tried to cover the activities of the governing bodies of our state. We have tried to highlight the shortcomings and achievements of our country in the field of governance until 2017 and beyond, the solutions to the accumulated problems and shortcomings in the field of governance*

## MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOSHQARUV TIZIMINING ISLOH ETILISHI

Qandaxorov Iftixor<sup>1</sup>

<sup>1</sup>SamDU Tarix fakulteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasida 2-kurs magistri

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 17-aprel 2021  
Ma'qullandi: 21-aprel 2021  
Chop etildi: 23-aprel 2021

### KALIT SO'ZLAR

davlat boshqaruv,  
prezident, Oliy Majlis,  
Senat, demokratiya

### ANNOTATSIYA

*Biz ushbu maqola orqali dalaletimizning boshqaruv orgalarining faoliyatini yoritishga harakat qildik. Davlatimizning 2017-yilgacha va undan keyingi davrdagi boshqaruv sohasidagi kamchilik va yutuqlar, boshqaruv sohasidagi to'planib qolgan muammo va kamchiliklarni yechimlarini yoritishga harakat qildik.*

O'zbekiston respublikasi 1991-yil 31-avgustda davlat mustaqilligiga erishdi. Mustaqil O'zbekistonning oldidagi eng muhim masalalardan biri davlat boshqaruvi sohasini isloh qilish turar edi. Shunday o'g'ir vaziyatda birinchi prezidentimiz tomonidan o'zbek milliy davlatchiligiga asos solindi. Davlat boshqaruv tizimini boshqichma-boshqich takomillashtirib borildi. Misol tariqasida olsak, 1992-yil 4-yanvarda sovet

tuzimidagi vetse-prezident lavozimi o'rniga Vazirlar Mahkamasi ijroya hokimiyati tuzildi va bosh vazir lavozimi joriy etildi. Dastlabki yillarda prezident Vazirlar Mahkamasi raisi vazifasini ham bajargan bo'lsa 2003-yilda O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi 98-moddasiga o'zgartirish kiritilib Vazirlar Mahkamasiga Bosh vazir raislik qiladigan bo'ldi. 1993-yilda 21 moddadan iborat „O'zbekiston Respublikasi Vazirlar



Mahkamasi to'g'risida'dagi qonun qabul qilindi. Jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqich talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarining hokimiyat vakolatlarini qisqartirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi vazifalarini aniq chegaralab qo'yish, shuningdek respublika davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida 2017-yildan keyin ayrim vazirliklar tashkil etildan shulardan, 2019-yil 30-sentabrdagi prezident farmoniga muvofiq Maktabgacha ta'lim vazirligi, Sport va madaniyat vazirligi alohida vazirlik sifatida tashkil etildi, 2017-yil 5-apreldagi farmoniga muvofiq Jismoniy tarbiya va Sport vazirligi, Energetika vazirligi, 2017-yil 16-oktabridagi prezident farmoniga muvofiq Bandlik va Mehnat vazirligi, 2017-yil 17-maydagi prezident farmoniga muvofiq Madaniyat vazirligi, Tashqi Savdo vazirligi, 2018-yil 1-avgustdagi prezedent farmoni asosida Suv Xo'jaligi vazirligi, Axborot texnologiyalar va kommunikatsiya vazirligi, 2017-yil 18-apreldagi prezidentning farmoniga muvofiq Uy-joy komunal xizmat vazirligi, 2018-yil 18-iyuldagi farmoniga muvofiq Qurulish vazirligi, 2020-yil 20-martdagi prezident farmoniga muvofiq Transport vazirligi, 2020-yil 20-martdagi prezedent farmoniga muvofiq Innovatsion vazirligi, Mahalla va oila masalalari vazirligi tashkil etildi. Shu bilan birgalikda davlatning boshqaruv organlarini soddalashtirish va takomillashtirish maqsadida ayrim qo'mitalar ham tashkil etildi. Bular; 2019-yil 8-noyabrda Davlat statistika qo'mitasi, 2017-yil 21-fevraldagi qarorga muvofiq Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, 2018-yil 12-dekabrda davlat qo'mitasi, 2018-yil 12-dekabrda davlat qo'mitasi Sanoat xavfsizlik qo'mitasi tashkil etildi. 2019-yil 8-noyabrda monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi,

Transport vazirligi asosida 2020-yil 20-martda Aftomobil yo'llar qo'mitasi tashkil etildi. Davlat boshqaruvini sodda va aholiga xizmat ko'rsatish tizimini yana qulayliklar yaratish va davlatni rivojlantirish maqsadida ayrim markaz va inspeksiya tashkil etildi. Bular jumlasiga quyudagilar kiradi; 2020-yil 18-martdagi PF asosida O'zbekiston Respublikasining Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb -hunar ta'limi markazi tashkil etilib, bundan maqsad ta'lim sifati yuqori marralarni egallashga qaratilgan. 2018-yil 24-martdagi PF asosida Vazirlar mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi tashkil etildi. 2018-yil 11-iyuldagi PF asosida FVV huzurida Hidrometeorologiya markazlari tashkil etildi. 2020-yil 20-mart kuni Transport vazirligi huzurida Termiryo'llar yuk va yo'lovchi tashish xavfsizligini nazorat qilish inspeksiya va aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida katta va alohida muhim suv obyektlarini nazorat qilish inspeksiya tuzildi<sup>1</sup>. 2019-yil 8-noyabrda Neft maxsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiya, 2018-yil 11-iyulda prezident farmoniga asosida Elektr energiyasini nazorat qilish bo'yicha davlat inspeksiya, 2018-yil 12-dekabrda Transport vazirligi huzurida Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiya 2020-yil 20-martdagi prezident farmoni asosida Uy-joy komunal xizmat ko'rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiya, 2020-yil 25-sentabrda O'simliklar karantini davlat inspeksiya tuzildi. Eng muhimi aholini sog'lom turmush tarziga roiya qilish va aholini salomatligi asrab avaylash maqsadida 2019-yil 10-yanvarda Moliya vazirligi huzurida Alkogol va tamaki maxsulotlarning

<sup>1</sup> lex.uz



bozorini tartibga solish inspeksiyasi tuzildi. Bunday davlat boshqaruv organlarini tashkil etilishi va faoliyati aholining turmush tarzini bir qancha ijobiy tomonga o'zgartirdi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 23-yanvardagi qonuniga muvofiq bugungi kunda Vazirlar mahkamasini tarkibi quyudagicha; Bosh vazir, bosh vazirning birinchi o'rinbosari, bosh vazirning turli sohalarni rivojlantirish bo'yicha beshta o'rinbosari, yigirma ikkita vazir va o'nta qo'mita raisidan iborat. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 98 moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat boshlig'i Vazirlar mahkamsining a'zosi hisoblanadi<sup>2</sup>. 1994-yilga kelib sovet tuzumidan meros qolgan oliy kengashdan voz kechib milliy parlamentimiz- Oliy Majlisga asos solindi. 2002-yilgi referendum va shu asosda qabul qilingan qonun loyihasi bo'yicha „ Oliy Majlisning senati to'g'risida “ va „ Oliy Majlis qonunchilik palatasi to'g'risida “ qonun qabul qilindi. 2005-yilda parlamentimiz ikki palatali etib belgilandi quyu palatasi qonunchilik palatasi yuqori palatasi esa senat deb ataldi. Shu tariqa ilk bor davlatchiligimiz tarixida mukammal parlamentga ega bo'ldik. Qonunchilik palatasi 150-kishidan senat esa 100 kishidan iborat etib belgilandi. Mamlakatimiz parlamentini bugunga qadar uch bosqichga bo'linadi; birinchi bosqich 1991-1994-yillar yani sovet hukumatidan meros bo'lib qolgan oliy kegash, ikkinchi bosqich 1995-2004-yillar yani bir palati parlament, uchinchi bosqich esa 2005-yildan bugungi kungacha bo'lgan davr. Bundan xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston parlamenti o'zining mukammal darajadagi parlamentligidan dalolat beradi<sup>3</sup>. Yana bir davlat boshqaruviga

qaraydigan bo'lsak, bu sud organidir. Dastlab 1993-yilning 2-sentabrida „sudlar to'g'risida“ qonun qabul qilindi va 2000-yilda bu qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Mustaqil O'zbekistonda sudlar faoliyatini ikki bosqichga bo'lishimiz mumkin. Birinchi bosqich 1991-2016-yillar va 2017-yildan keyin davr. 2017-yildagi „Sudlar to'g'risida“gi qonunga o'zgartirish kiritib,bugungi kunda quyudagi sudlar faoliyat yurutmoqda;

1.O'zbekiston respublikasining konstitutsiyaviy sudi

2.O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi

3.O'zbekiston respublikasining Oliy xo'jalik sudi

4.Qoraqalpog'iston fuqorolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudi

5.Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi

6.Fuqorolik va jinoyat ishlar bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudi

7.Fuqorolik va jinoyat ishlar bo'yicha tumanlararo,tuman,shahr sudlari

2017-yil 7-fevralda davlatni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinga besh tamoyildan iborat „Harakatlar strategiyasi“ qabul qilindi. „Harakatlar strategiyasining ikkinchi tamoyili-Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilish deb ataladi. Bu sohada quyudagi vazifalar nazarda tutilgan;

1.Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini taminlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish. 2. Fuqorolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish

<sup>2</sup> .www.gov.uz

<sup>2</sup> oliy majlis-gov.uz



kafolatlarini taminlash. 3. Mamuriy jinoyat, fuqorolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish. 4. Jinoyatga qarshi kurashishning oldini olish tizimi takomillashtirish. 5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash. 6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirishdan iborat<sup>4</sup>. Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning avvallari qonunchilikda ma'lum bir to'siqlar olib tashlandi. Bu avvallari mustaqil davlatchiligimizda misli ko'rilmagan darajadagi o'zgarish musaffo osmonimiz uchun ko'p yillik olis masofaga qaratilgan tub burilish bo'ldi. Mazmunli faoliyat yurtishini ta'minlabgina qolmay aholining ortiqcha mouomolarini vujudga kelishini oldini oladi. Aholining ish bilan taminlash va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida viloyat, tuman va shahar hokimliklarida yangi lavozim, yani investitsiyalar va aholining bandligiga ko'maklashish bo'yicha hokim o'rinbosarlari lavozimi joriy etildi. Aholining dardiga malham sifatida 2019-yilning 17-yanvarida prezedent „Aholi muommolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida’’gi Farnmoni elon qilinib xalq qabulxonalarining faoliyati yanada takomillashtirildi.

Ko'rinib turibdiki davlat va jamiyatni boshqarish tizimida o'zbek davlatchiligi tarixida hech qachon yuz bermagan islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu kabi islohotlar insoniyatning demokratik jamiyat va aholining turmush tarzida g'oyat katta yutuq hisoblanadi. Bu islohotlar tufayli bugungi kunda aholi orasida o'zi yashab turgan jamiyatdan, yurtdan behisob minnatdorligi ko'rinib turibdi. Bu yutuqlar butun o'zbekiston xalqiga tegishlidir

---

<sup>4</sup> xalq so'zi gazetasi'' 204-son 2020-yil



## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov „Inson uning huquqi va erkinliklari oliy qadriyat ‘’ -Toshkent 2006
2. SH.M. Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta’minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi Toshkent 2018
3. „Xalq so’zi gazetasi’’ 204-son 2020-yil
4. [www.president.uz](http://www.president.uz)
5. Oliy majlis axborotnomasi 2003-yil 11-12 son 178-modda
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
7. [www.OliyMajlis-gov.uz](http://www.OliyMajlis-gov.uz)